



## MUSIQIY ASARLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. QO'SHIQ ORQALI O'QUVCHILAR ONGIDA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH.

**Aynisa Yuldasheva**

O'zDSMI

"Vokal" kafedrası dotsent v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14619352>

**Annotatsiya:** Qo'shiq xalq amaliy san'atining asosiy musiqiy-poetik ijodidir. U inson hayotini ko'p jihatdan aks ettiradi, uning ma'naviy go'zalligini, fikr va intilishlarining boyligini ochib beradi. Aynan qo'shiq ijodida xalqning ezgulik, adolatga bo'lgan azaliy intilishlari to'la namoyon bo'ladi. O'ziga hos samimiylik tufayli qo'shiq har bir kishiga chuqur hissiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, qo'shiq o'quvchilar ongida vatanparvarlik, ona tabiatga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi, musiqiy-estetik didni rivojlantiradi, jamoaviylik, do'stlik tuyg'ularini, ijodiy qobiliyatlarini uyg'otadi.


**Tayanch sozlar:** musiqa, qo'shiq, ansambl, xor, madaniyat, musiqa pedagogikasi, ohang, his-tuyg'u.

**Аннотация:** Песня – главное музыкально-поэтическое произведение народного творчества. Оно во многом отражает жизнь человека, раскрывает его духовную красоту, богатство помыслов и стремлений. Именно в песне в полной мере проявляются стремления народа к добру и справедливости. Благодаря присущей искренности песня оказывает глубокое эмоциональное воздействие на человека. Вместе с тем песня воспитывает чувство патриотизма, любовь к природе, развивает музыкально-эстетический вкус, пробуждает в сознании человека чувства коллективизма, дружбы, творческие способности.

**Ключевые слова:** музыка, песня, ансамбль, хор, культура, музыкальная педагогика, мелодия, чувство.

**Abstract:** A song is the primary musical - poetic creation of folk art. It reflects many aspects of human life, revealing its spiritual beauty and the richness of thoughts and aspirations. In song creation, the timeless yearning of people for goodness and justice is fully expressed. Duo to its unique sincerity, a song deeply affects every individual emotionally. At the same time, songs nurture patriotism and love for nature in students, enhance musical-aesthetic taste, and awaken feelings of teamwork, friendship, and creativity.

**Key words:** music, song, ensemble, choir, culture, music pedagogy, melody, emotion.





O'zbek xalqining ko'hna va boy madaniyati asrlar davomida ma'naviyat manbai bo'lib kelgan. Boy madaniy merosimizni o'rganish, milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni tiklash, ma'naviy boyligimiz – musiqiy asarlarni hozirgi davr talabi darajasida o'rganish, ularni tiklash va avaylab asrash orqali yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash davlat darajasida qaralmoqda. Shunga ko'ra ma'naviy merosimizning uzviy tarbiyaviy qismi sifatida o'zbek an'anaviy musiqasi, folklori hamda mumtoz musiqa namunalari va an'anaviy musiqa asarlarini izchil o'rganib, musiqa san'atini keng rivojlantirish va yangi ijodiyot yo'nalishlarida foydalanish hamda yosh avlodga keng targ'ib etish eng muhim vazifalardan sanaladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi». Darhaqiqat o'zbek musiqa san'atining qadimiy va navqiron xalq qo'shiqlari, ashulalari, dostonu maqomlari yillar davomida boyidi va taraqqiy etib boradi.

Musiqiy ta'lim o'quvchilarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga ta'siri ulkandir. Musiqiy asarni o'rganish va ijro etish jarayonida o'quvchilarda qiziqishlar doirasi kengayadi, bu esa yangi bilim va hissiyotlarni keltirib chiqadi. O'z ijodining natijalarini boshqalarga ko'rsatish va baham ko'rish istagi paydo bo'ladi. Jamoa bo'lib kuylash o'quvchilarni musiqa san'atiga faol jalb etishning eng ommaviy shaklidir. Ma'lumki, qo'shiq kuylash san'ati bolalarda samimiyligni, o'zaro mehr-oqibatni yanada o'stirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda musiqa ta'limining mazmun va mohiyati zaminida barkamol avlod, komil inson tarbiyasi yotadi.

Bu borada jamoa bilan kuylashning tarbiyaviy ahamiyatini ta'kidlab o'tish zarur. Ansambl yoki jamoaviy qo'shiq kuylash shaxsning o'z-o'zidan namoyon bo'lishiga aylanadi, bunda uning ijodiy kuchi, musiqiy did va yuksak vokal ijrochilik madaniyati shakllanadi, shu bilan birga ijtimoiy ehtiyojlari amalga oshiriladi. Kollektiv ijodiy faoliyat – bu individual musiqiy qobiliyatlarni namoyon qilish, hamkorlik qilish va o'zaro munosabatlarini hal qilish imkoniyatini beradi. Ijodiy faoliyatda musiqiy va qo'shiqchilik mahoratini shakllantirish jarayoni yosh avlodning musiqiy, estetik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab xususiyatlar va hissiy taassurotlarga ega. Birgalikda kuylash musiqa san'ati sohasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat badiiy rivojlanishiga, balki ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ham hissa qo'shadi. Vokal ijrochiligi tushunchasi juda keng tushuncha hisoblanib, an'anaviy, klassik va estrada singari turlarga bo'linadi. Vokal asari yakka,





ansambl, yoki xor ijrosida, shuningdek, musiqa cholg'ulari jo'rligida yoki jo'rsiz (katta ashula, a'capella kabi) ijro etiladi. Barcha turlarda xonanda ovozi yetakchi o'rin tutadi.

Bolalarga xor asarlarini kuylatish orqali milliy g'urur, ma'naviy-axloqiy xususiyatlar, estetik va boshqa shaxsiy fazilatlar shakllantiriladi. O'quvchilarda musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish vokal-xor ijrochiligida dolzarb muammolardandir. Xor ijrochiligi hozirgi kunda keng tarqalgan san'at turlaridan biri bo'lib jamoa ijrochiligi insonlarda chuqur estetik zavq uyg'otibgina qolmay, jamoa bo'lib birlashishga olib keladi hamda ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. U insonning his-tuyg'ularini uyg'otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Jamoa ijrochiligi tarbiya vositasida ham katta ahamiyatga ega bo'lib vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari kabi xislatlarni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash joizki, har bir yaratilgan qo'shiq yashab turgan zaminimizni madh etishi, baxtli bolalik hissini uyg'otishi, ezgulikka chorlashi, do'stlik, mardlikka undashi, bolaning ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi lozim.

Vokal san'ati yosh avlodni xalq qo'shiqchiligi me'rosiga, shuningdek, milliy, yevropa klassik musiqa durdonalariga qiziqish uyg'otib birlashtiradi hamda ahillik va birdamlikka chorlaydi, ulardagi ba'zi bir fiziologik, psixologik (duduqlanish, fikrni bayon qila olmaslik, xotiraning sustligi, tortinchoqlik, uyatchanlik, injiqlik kabi) nuqsonlarni bartaraf etishda yordam beradi. Chunki yurakning musiqa bilan hamohang urib turishi bolaning fikrlarini jamlab, bir tizimga solishga va tarbiya muammolari yechimini topishga yordam beradi.

Musiqa pedagogikasi yetuk olimlarining ta'kidlashlaricha qo'shiq kuylashning qator foydali jihatlari mavjud:

- qo'shiq kuylaydigan bolada, avvalo, ovoz imkoniyatlari, eshitish qobiliyati rivojlanib, chiroyli kuylashni o'rganadi va undan zavq oladi;
- o'z ovozini boshqa ovozlar bilan moslagan holda, garmoniyaga, ya'ni, hamohanglikka erishishga intiladi;
- keyinchalik, u musiqa sohasida faoliyat yuritmasa ham, barcha ishda garmonik uyg'unlikka intiladi, mutanosiblikni qidiradi va yetishadi.

Musiqaning xususan, o'quvchilar qalbiga milliy ruh elementlarini singdira olishi birinchi navbatda ohanglar sadosiga asoslanadi. Zero, har bir millatning ruhiyatini, uning qaysi millatga mansubligini, uning musiqiy ohanglar to'qimasi, lad va ohanglari belgilab beradi. Ma'lumki, musiqa bolaning his-tuyg'ulariga ta'sir etib, atrof-olamning tengsiz go'zalliklarini his qilishga o'rgatadi. Insonning ruhan boy kamolga yetishiga yordam beradi. Musiqa vositasida o'quvchilarni





milliy ruhda tarbiyalash muhim pedagogik muammo bo'lib, uni asrlar davomida sayqallanib kelgan musiqiy merosimiz asosida amalga oshiriladi. Buning uchun esa o'z navbatida milliy ruh tushunchasining asosiy mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish talab etiladi. Musiqa vositasida o'quvchilar qalbiga milliy ruh elementlarini singdira olish birinchi navbatda ohanglarga asoslanadi. Bolalar qo'shiq ijrosining keng ommaviyligi o'zbek kompozitorlari, shoirlari, o'qituvchilari, bolalar musiqa jamoalari rahbarlarining ijodini faollashtiradi. Musiqiy pedagogikada bolalarni qo'shiq aytishga o'rgatishning ko'proq yangi shakllari va usullari qo'llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan, keng auditoriyaning bolalar qo'shiqlarini idrok etish va tushunishga tayyorligi ancha yuqori. Bu xususiyatlar musiqa pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida har tomonlama hisobga olinadi. Shu asosda bolalar qo'shig'i bolalar musiqa ta'limining eng ommabop vositasi va musiqa-pedagogik jarayonning asosiy shakli hisoblanadi.

Musiqa vositasida milliy ruhni tarbiyalash faqat ma'lum bilimlar bilangina emas, balki axloqiy tushunchalarni egallash va unga amal qilishda ham asosiy mezonlardan hisoblanadi. Milliy ruhiyat o'quvchilarda vatanparvarlik, ilm-ma'rifat, odamiylik, odillik, raxm-shafqat, diyonat, vijdon kabi ma'naviy fazilatlar orqali shakllanadi. Inson san'at asarini to'liq idrok etishi uchun uning asosiy g'oyasini, maqsadini, tushunishi muhim sanaladi.

Estetik tarbiya zamirida axloqiy bilim, konikma va malakalar axloq qoidalari yordamida oquvchining xulq-atvori, hatti-xarakatlarini boshqarishning oziga xos tizimi yotadi. Axloqiy fazilatlar esa oquvchining kop qirrali faoliyati davomida qisman musiqa va qo'shiq vositasida shakllanib boradi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik kabi qator muhim tushunchalar axloqiy fazilatga oid tushunchalardir. O'quvchilarda shakllana boshlagan bilim, ko'nikma va malakalar ularda musiqa san'atining nodir asarlarini tushunish va o'zlashtirish, ulardan zavqlanish imkoniyatini kengaytiradi.

Shunday qilib, inson tabiatiga hos bo'lgan musiqiy qobiliyatlar musiqiy va ijodiy faoliyat natijasida yosh avlodni tarbiyalash bilan bir vaqtda jamiyatning ijtimoiy madaniy sohasini takomillashtiradi. Vatanparvarlik tarbiyasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir, chunki u zamonaviy maktabning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Vatanparvarlik tarbiyasi maktab o'quvchilarida o'z Vatani, o'z xalqi bilan faxrlanish, uning ulkan yutuqlari va o'tmishning munosib sahifalariga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan tinimsiz mehnatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ibragimov O. "4-sinf musiqa darsligi" 2002- yil.10-12b.





2. R.Kadirov. Muzikalnaya pedagogika. Uchebnoe posobiye. T.: -2008. 69 b.
3. A.I.Avazboyev, Y.U.Ismadiyarov. Kasbiy pedagogika. T.: -2014.
4. T.Atamuratova, X.Ergasheva, M.Qurbonov. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi.T.: -2008.
5. Sh.Do'stmuhamedova, Z.Nishanova. Yosh davrlari va pedagogic psixologiya. T.: -2013.

